



## IQLIM SHAROITINING ASALARILAR MAXSULDORLIGIGA TA'SIRI

<sup>1</sup>G'oyibov Otabek Shamsiddinovich

Hayvonlar yuqumli kasalliklari kafedrasida katta o'qituvchisi,

<sup>2</sup>Djabbarova Dilnoza Xasilbekovna,

<sup>3</sup>Sayfullayeva M.I.,

<sup>4</sup>Komilov Hajibay Rashid o'g'li

Hayvonlar yuqumsiz kasalliklari kafedrasida assistentlari,  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7561293>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 22<sup>th</sup> January 2023

Online: 23<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

Asalari, iqlim sharoiti,  
mahsuldorlik, ekologik  
muvozanat, asalarichilik  
mahsulotlari, zararkurandalar,  
pestitsid, gerbitsid, gul changi.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada asalarilari oilasini parvarishlashda iqlim sharoitini mahsuldorligiga ta'siri va uni oldini olish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.*

Asalarichilik qishloq xo'jaligida ekinlarni changlatib hosildorligini oshiribgina qolmay, qimmatbaho, to'yimli va dorivor mahsulotlar, sanoat uchun ajralmas xomashyo yetkazib beruvchi azaldan xalqimizning daromad manbalaridan biri bo'lib kelgan. Atrof-muhitning tirik ko'rsatkichi sifatida asalarilarning ahamiyati ortib bormoqda. Ular hayvonot dunyosining barqarorligini va asrab-avaylanishini ta'minlovchi tizimdagi o'ziga xos ekologik bo'g'inni ifodalaydi va yerdagi ekologik muvozanatni saqlashda bevosita ishtirok etadi.

Inson faoliyati majburiyatlarining ajralmas qismi bu asalarilarni ko'paytirish, saqlash va saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashdir.

Aholini asalarichilik mahsulotlari bilan ta'minlash masalasini hal etish uchun asalarichilikda mahsuldorlikni oshirish usullarini takomillashtirish ustida olimlar domiy ravishda izlanishlar olib bormoqdalar.

Asalarichilik soha sifatida katta istiqbolga egadir. Asal etishtirishni ko'paytirish asalarilarni saqlash va ulardan foydalanishning zamonaviy texnik vositalarini qo'llash hisobiga bo'lishi kerak, bu esa olingan mahsulotning sifat darajasini oshiradi. Asalarichilikda eng muhim shartlardan biri ko'plab omillarni inobatga olgan holda mehnat samaradorligini oshirishdir.

Olimlar tomonidan bugungi kunga qadar O'zbekiston sharoitida ko'paytirilgan mahalliy asalari zotlariga bir qancha omillarning ta'siri o'rganilgan.

Asalari mahsuldorligini oshirish jarayonida asalarilarga turli omillar ta'sir qilishi tadqiqotlar davomida kuzatib borilgan bo'lib, ushbu omillar asalarilarning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi aniqlangan.

Kuzatishlarda asalarilar oilasining mahsuldorligi va umr ko'rish davomiyligiga ta'sir qiluvchi omillar ikki guruhga bo'lingan:

1. **Tashqi omillar**- iqlim va ob-havo sharoiti, o'simlik va hayvonot dunyosi, ozuqa bazasi, asalarilarning dushmanlari va zararkunandalari, insonning xo'jalik faoliyati (pestitsidlar, gerbitsidlardan foydalanish). Bu omillarning aksariyati odamlardan deyarli



mustaqildir, ammo ular asalari oilalarining hayoti va mahsuldorligi uchun katta ahamiyatga ega.

Atrof-muhit haroratining 30°C dan ortishi va oilada asalarilar sonining ko'payishi oilaning haddan tashqari qizib ketishiga va uyadagi qurtchalarning sifati buzilishiga olib keladi. Bu vaqtda asalarilar o'z oilasini shamollatish, suv purkash va suvni bug'lash kabi harakatlar bilan sovutadi. Natijada oila saqlanib qoladi, lekin asalari mahsulotlari (asal, gul changi, propolis)ning miqdori kamayadi.

**2. Ichki omillar-** asalarilar oilasining hayoti davomida uya ichida hosil bo'lgan omillar kiradi. Ular mahsuldorlik uchun muhim bo'lib, asosan ichki muxit asalari genotipiga bog'liq bo'ladi.

Asalarilarichilikda uyada oilaning mustahkamligi muhim ahamiyatga ega. Oilada asalarilar qancha ko'p bo'lsa, oila shunchalik mustahkam bo'ladi va undan ko'p mahsulot olish mumkin. Faol mavsumda 1 kg vaznli asalari oilasi 7 kg asal, 2 kgdan esa - 20 kg, 4 kgdan - 49 kg asal olinadi.

Asalarilar qishlovi respublikmizning tez o'zgaruvchan iqlim sharoitida butunlay o'zgacha va murakkab holda o'tadi. Tog'li hududlarda yoz faslining ko'pincha quruq kelishi, yog'ingarchilik bo'lmasligi oqibatida o'simliklar guli tez quriy boshlaydi, gulshira va gulchangning kelishi butunlay to'xtab qoladi, ona asalari tuxum qo'yishni kamaytiradi. Natijada asalari oilalari qishlovga qari, yoshi ulg'aygan asalarilar bilan kiradi. Bu esa ko'plab salbiy oqibatlarga, qishlovning muvaffaqiyatsiz o'tishiga, ko'pincha asalarilarning o'limiga olib keladi.

Asalari kasalliklari oilalarning mahsuldorligiga salbiy ta'sir qiladi, shuningdek, xarajatlarni keskin oshiradi. Yuqumli va invazion kasalliklar bilan zararlangan asalarilar oilalarida asalarilarning sezilarli darajada nobud bo'lishi kuzatiladi, soni kamayadi. Ularni tiklash uchun o'z vaqtida choralar ko'rilmasa, asalari oilalari zaiflashadi, hatto butunlay oila yo'q bo'lib ketishi mumkin.

Asalari oilasini mahsuldorligi nafaqat ozuqa zahirasisiga balki tashqi va ichki muxitga ham bog'liq bo'lib ularda uchraydigan turli yuqumsiz va yuqumli kasalliklar ham mahsuldorlikga ta'sir qiladi.

**Tavsiyalar:** Iqlim sharoitini asalarilar mahsuldorligiga ta'sirini kamaytirishda quyidagi tartibda asalari oilasini parvarish qilish tavsiya etiladi.

1. Oilada asalari sonini doimiy monitoring qilib borish. Bunda ona arini tuxum quyish soni, ishchi va erkak asalarilar miqdirini aniq bilib turish kerak.
2. Iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda mavsum davomida qo'shimcha oziqlantirish choralari ko'rish zarur.
3. Yuqumli va invazion kasalliklarga qarshi doimiy profilaktika tadbirlarini rejali ravishda o'tkazib borish.
4. Asalari oilasi uchun qulay sharoit yaratish choralari yaratish kerak.

## References:

1. A.I.Isamuhammedov. "Asalarichilk". – T.:O'qituvchi, 1995 yil.
2. B.A.Qaxramonov., A.I.Isamuhammedov., U.Sh.Ballasov va boshqalar. "Asalarichilik". – T.: 2012 yil
3. A.I.Isamuhammedov., H.K.Nikadambayev. "Asalarichilkni rivojlantirish asoslari – "SHARK" NASHRIYOT MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAXRIRIYATI TOSHKENT-2013.
4. Я.Ж.Жураев., Э.Т.Остонакулов., О.Н.Фармонов. "Асаларичилик" УСЛУБИЙ КУЛЛАНМА -2011.



# EURASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES

Innovative Academy Research Support Center

UIF = 8.3 | SJIF = 5.995

[www.in-academy.uz](http://www.in-academy.uz)

5. Sh.N.Nasimov., V.A.Getasimchik., Z.B.Mamatova., F.A.Xabibov. "Asalari kasalliklari va zararkurandalari" – T.: Fan ziyosi -2021.